KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. DJabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Xakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	



SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI

Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi

Oriental universiteti, PhD, dots. v. b.

E-mail: gulchiroy836@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7204-6986

Annotatsiya. Ushbu maqolada sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida resurs tanqisligining oldini olishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot modelini amaliyotga joriy etish jarayonidagi muammolar, resurs tanqisligi bilan bog'liq masalalar hamda resurs tanqisligining oldini olishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sirkulyar yondashuvning iqtisodiy barqarorlik va ekologik boshqaruvdagi ahamiyatini yanada yoritib beradi.

Kalit so'zlar: sirkulyar iqtisodiyot, resurs tanqisligi, qayta ishlash, iqtisodiy barqarorlik, ekologik boshqaruv.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of preventing resource scarcity based on the principles of the circular economy. Additionally, the study examines the challenges associated with implementing the circular economy model, issues related to resource shortages, and key strategic directions for preventing resource scarcity. The findings highlight the importance of the circular approach in enhancing economic sustainability and environmental management.

Key words: circular economy, resource scarcity, recycling, economic sustainability, environmental management.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты предотвращения дефицита ресурсов на основе принципов циркулярной экономики. Кроме того, рассматриваются проблемы внедрения модели циркулярной экономики, вопросы, связанные с дефицитом ресурсов, а также основные направления, направленные на его предотвращение. Полученные результаты подчеркивают значимость циркулярного подхода для обеспечения экономической устойчивости и экологического управления.

Ключевые слова: циркулярная экономика, дефицит ресурсов, переработка, экономическая устойчивость, экологическое управление.

KIRISH

Global resurs zaxiralari kamayib borayotgan va iste'mol darajasi ortib borayotgan sharoitda xomashyo oqimlarini optimallashtirish, chiqindilarni qisqartirish, qayta ishlash hamda qayta foydalanish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda resurslarga bo'lgan talabning keskin ortishi, global aholi sonining oshishi va ishlab chiqarishning kengayishi natijasida tabiiy xomashyo zaxiralari bosqichma-bosqich kamayib bormoqda. Bunday sharoitda an'anaviy "ol – foydalan – tashla" tamoyiliga asoslangan chiziqli iqtisodiyot modeli samaradorligini yo'qotib, uning cheklangan imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan dunyo mamlakatlarida sirkulyar iqtisodiyot — resurslardan takror va uzluksiz foydalanishga, chiqindilarni iqtisodiy qiymatga aylantirishga asoslangan zamonaviy iqtisodiy yondashuv — tobora keng joriy qilinmoqda. Mazkur tizim resurs tanqisligini bartaraf etishning eng maqbul konsepsiyalaridan biri bo'lib, u nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni ham sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston sharoitida ham chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, sun'iy resurs aylanishi zanjirlarini yaratish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi resurs tanqisligi bilan bog'liq xavflarni kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvlarni chuqur o'rganish zaruratidan kelib chiqadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sirkulyar iqtisodiyotda resurslar taqchilligi masalalarini o'rganish bo'yicha yevropalik olimlar — E. Makartur, P. Ekins, V. Haas, F. Krausmann, S. Mendonca, D. Wiedengöfer, M. Haynz, A. Jesus, A. Honkasalo, P. Antunes, R. Santos, J. Korhonen, J. Seppala, S. Fer, A. Giss, Torp va boshqa tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan¹.

Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi dastlab ekologik iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish va yashil iqtisodiyot nazariyalariga tayanib shakllangan. R. Birkning ta'kidlashicha, ushbu modelning asosiy vazifasi — resurslarning uzluksiz aylanishini ta'minlashdir². Ellen MacArthur Foundation (2013) esa sirkulyar iqtisodiyotni "yopiq siklli iqtisodiy tizim" sifatida talqin etib, mahsulotlarning maksimal muddat foydalanishda bo'lishini muhim deb biladi³.

J. Kirchher va hammualliflar (2017) ta'rifiga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyot — bu resurslar oqimini minimal yo'qotish bilan boshqarish, chiqindilarni iqtisodiy tizimga qaytarish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan optimallashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan tizimdir⁴. J. Kirchher o'z ilmiy qarashlarida shuningdek ta'kidlaydiki, sirkulyar iqtisodiyot "end of life" tamoyilini almashtiruvchi biznes modellarga asoslanadi. Bu yondashuv barqaror rivojlanishni ta'minlashda mikro (mahsulotlar, kompaniyalar, iste'molchilar), mezo (eko-sanoat parklari) va makro (shahar, viloyat, mamlakat) darajalarda ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonlarida materiallarni qayta ishlash va qayta tiklashni nazarda tutadi. Natijada hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik tozalik, iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy adolatning ta'minlanishi ko'zda tutiladi⁵.

Xorijlik olim K. Warren o'z ilmiy qarashlarida sirkulyar iqtisodiyotni an'anaviy iqtisodiyotga samarali muqobil sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, ushbu modelda resurslardan imkon qadar uzoq vaqt davomida foydalanish, ulardan eng yuqori qiymat olish hamda mahsulot va materiallarni qayta tiklash va qayta ishlatish muhim ahamiyat kasb etadi⁶.

AQShlik tadqiqotchi H. Wilts sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy g'oyasi sifatida mahsulotning hayotiy tsikli yakunida uning qiymatini imkon qadar saqlab qolish zarurligini ta'kidlaydi⁷.

Rossiyalik olim A. V. Shishmaryova esa sirkulyar iqtisodiyot ekologik yukni kamaytirish bilangina cheklanib qolmay, balki texnologik, tashkiliy va ijtimoiy innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini qayd etadi.

Ko'plab olimlarning ilmiy fikrlariga ko'ra, sirkulyar jarayonlarning samaradorligini oshirayotgan asosiy omillardan biri — chiqindilarni qayta ishlash bozorida innovatsion texnologiyalar jadal joriy etilayotganidir. Bu holat ayniqsa energetika, plastmassa, kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston sharoitida ham sirkulyar iqtisodiyot davlat dasturlari doirasida izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, qayta ishlash sanoatini qo'llab-quvvatlash, chiqindilarni to'plash va saralash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, ushbu sohada quyidagi hujjatlar alohida ahamiyat kasb etadi:

- 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030" farmoni⁸;
- 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon⁹;
- 2024-yil 26-sentabrdagi PF-149-son "Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi to'g'risida"gi farmon¹⁰;
- 2022-yil 11-avgustdagi PF-189-son "Chiqindilar bilan bog'liq ishlari tizimini isloh qilish to'g'risida"gi farmon¹¹;

1 Mathieux F., Blengini G. A. Circular Input Rate: novel indicator to assess circularity performances of materials in a sector – Application to rare earth elements in e-vehicles motors / F. Mathieux, G. A. Blengini // Resources, Conservation and Recycling. – 2023. – Vol. 197. – 107037.

2 Birk, R. (2015). *Circular Economy: Principles and Challenges*. London: Green Press.

3 Ellen MacArthur Foundation. (2013). *Towards the Circular Economy*.

4 Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2017). *Conceptualizing the Circular Economy*. Journal of Cleaner Production.

5 Kirchherr, J. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions / J. Kirchherr, D. Reike, M. Hekkert // Resources, Conservation and Recycling. – 2017. – Vol. 127. – P. 224.

6 Warren, K. Circular economy study identifies 3 million jobs across Europe / K. Warren // WRAP. – 2015. – URL: <https://www.wrap.org.uk/content/circular-economy-study-identifies-3-million-jobs-across-europe>.

7 Wilts, H. The digital circular economy: can the digital transformation pave the way for resource-efficient materials cycles? / H. Wilts, H. Berg // In Brief: Sustainability Impulses from Wuppertal. – 2017. – URL: <https://juniperpublishers.com>.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413?ONDATE=29.12.2023%2000>

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.01.2024 yildagi PF-5-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-6732832>

10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2024 yildagi PF-149-son <https://lex.uz/uz/docs/-7128153?ONDATE=04.10.2024%2000>

11 Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan, 11.08.2022 yildagi PF-189-son <https://lex.uz/docs/-6154708>



- 2025-yil 17-yanvardagi PF-56-son “Qayta ishlash sohasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon¹²;
- 2017-yil 26-maydagi PQ-3012-son “2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish dasturi to‘g‘risida”gi qaror¹³.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etishning mustahkam me‘yoriy asosini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston sharoitida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali resurs taqchilligini oldini olish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy ishlanmalar, statistik ko‘rsatkichlar va xalqaro tajriba tahlil qilinib, sirkulyar iqtisodiyotning asosiy mexanizmlarini baholashga alohida e‘tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiyalash, tahlil, sintez, shuningdek, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar sirkulyar iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda sirkulyar iqtisodiyot nafaqat jahon miqyosida, balki O‘zbekiston sharoitida ham resurs taqchilligini oldini olishning samarali yechimlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Aylanma iqtisodiyot an‘anaviy chiziqli iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, resurslarning uzluksiz aylanishi, chiqindilarni kamaytirish va ularni iqtisodiy tizimga qaytarish tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, ushbu modelni keng ko‘lamda joriy etish jarayonida ayrim tizimli muammolar va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar mavjud. Quyida ushbu masalalar ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Ikkilamchi materiallar yetishmovchiligi

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy maqsadi materiallarni qayta ishlash va qayta foydalanishdir. Biroq ayrim xomashyolar — xususan, noyob yer metallari yoki murakkab elektronika komponentlaridagi materiallar — hozirgi texnologiyalar darajasida to‘liq qayta tiklanmaydi. Natijada qayta ishlanadigan materiallar hajmining cheklanganligi resurslar bo‘yicha ma‘lum chegaralarni yuzaga chiqaradi. Bu esa ushbu yo‘nalishda yangi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishini yanada zarur etadi.

Texnologik cheklovlar

Murakkab tarkibli mahsulotlarni qayta ishlashda mavjud texnologiyalar ba‘zan yetarli samaradorlikka ega bo‘lmaydi. Masalan, elektron qurilmalar yoki turli xil polimer materiallarni to‘liq qayta ishlash texnik murakkabliklar sababli qiyinlashadi. Shu sababli zamonaviy yuqori samarali qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish strategik ahamiyatga ega.

Qayta ishlash xarajatlarning yuqoriligi

Ba‘zi materiallarni qayta ishlash xarajatlari ularni birlamchi manbadan qazib olishdan qimmatroq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa noyob yoki qimmatbaho materiallarni qayta ishlash jarayoni katta investitsiyalarni talab qiladi. Ushbu holat iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun davlat qo‘llab-quvvatlovi va innovatsion yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

Sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Chiqindilarni yig‘ish, saralash va qayta ishlash tizimlarining yetarlicha takomillashmagan holati resurslarning samarali aylanishini cheklaydi. Biroq ushbu yo‘nalishda O‘zbekistonda tub islohotlar amalga oshirilmoqda va infratuzilmaviy baza bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda.

Resurslar talabi va ta‘minotidagi noaniqliklar

Sirkulyar iqtisodiyot samaradorligi uchun resurslar talabi va ta‘minotini aniq rejalashtirish muhim hisoblanadi. Ammo global bozorlar va texnologiyalardagi o‘zgarishlar prognozlarni murakkablashtiradi. Bu esa raqamli prognozlash tizimlarini joriy etish zaruratini kuchaytiradi.

Qonunchilik va reglamentatsiya masalalari

Ba‘zi davlatlarda qayta ishlash jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza yetarli darajada takomillashmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa iqtisodiy rag‘batlar yetishmasligiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan yangi qonunlar va farmonlar ushbu jarayonni sezilarli darajada faollashtirmoqda.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.03.2025 yildagi PF-56-son <https://lex.uz/en/docs/-7445858>

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 26.05.2017 yildagi PQ-3012-son <https://lex.uz/ru/docs/-3221894>




Jamoatchilik ongining yetarli rivojlanmagani

Sirkulyar iqtisodiyotning muvaffaqiyati iste'molchilarning ekologik madaniyatiga bevosita bog'liq. Ko'pchilik aholida qayta ishlangan mahsulotlarga bo'lgan ishonch yetarli emas. Biroq ekologik ta'lim va targ'ibot ishlarining kuchaytirilishi sohada ijobiy o'zgarishlarni jadallashtirmoqda.

Global ta'minot zanjirlaridagi murakkabliklar

Dunyo bozorida materiallarning global taqchilligi, yetkazib berish zanjirlarining murakkabligi qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon integratsiyalashgan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab qiladi (1-rasm).



1-rasm. Sirkulyar iqtisodiyotda resurs taqchilligini oldini olishning asosiy yo'llari

Sirkulyar iqtisodiyotda resurs taqchilligini oldini olishning asosiy yo'nalishlari:

Resurslarning samarali ishlatilishi.

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy maqsadi — resurslarni maksimal darajada samarali ishlatishdir. Bu yondashuv, avvalo, xomashyo, energiya va suv kabi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonlarida resurslar minimal miqdorda sarflanishi, chiqindilar esa imkon qadar kamaytirilishi lozim.

Qayta ishlash va tiklash (Recycling and Upcycling).

Aylana iqtisodiyotda chiqindilarni qayta ishlash muhim o'rin tutadi. Bu orqali tabiiy resurslar tejiladi, ularning isrof bo'lishi cheklanadi. Qayta ishlash jarayoni nafaqat chiqindilarni kamaytiradi, balki ulardan yangi mahsulotlar yaratish imkoniyatini ham kengaytiradi. Yuqori sifatli materiallarni qayta ishlab, ular asosida yangi mahsulotlar yaratish resurslarning doimiy yangilanib borishiga xizmat qiladi.

Yashil innovatsiyalar va texnologiyalar.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sirkulyar iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Energiya tejamkor qurilmalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari kabi yechimlar resurslardan samarali foydalanishga va resurs taqchilligini kamaytirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Dizayn va ishlab chiqarish jarayonining qayta ko'rib chiqilishi.

Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarni qayta dizaynlash orqali resurslarni tejash va ishlab chiqarishni optimallashtirishga erishiladi. Modul tizimlar, uzoq muddat xizmat qiladigan mustahkam mahsulotlar, oson ta'mirlanadigan va qayta ishlanishi qulay bo'lgan konstruksiyalar — bularning barchasi resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalar.

Sirkulyar iqtisodiyotda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Qayta ishlashni kengaytirish, resurslardan foydalanish madaniyatini oshirish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash mumkin. Xususi va davlat sektorlarining hamkorligi resurs taqchilligini oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Xarajatlar va iqtisodiy samaradorlik.

Resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish uzoq muddatda iqtisodiy xarajatlarning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etgan korxonalar nafaqat tejamkorlikka erishadi, balki o'zlarining raqobatbardoshligini ham oshiradilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyot modeli resurs tanqisligini samarali oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Resurslarning uzluksiz aylanishi, chiqindilarni kamaytirish va ularni iqtisodiy tizimga qaytarish orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar, yuqori samarali qayta ishlash usullari va infratuzilmani rivojlantirish sirkulyar jarayonlarning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Taklif etiladi: qayta ishlash va qayta tiklash sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ijtimoiy ongni oshirish va ekologik madaniyatni rivojlantirish, davlat va xususiy sektorning uzviy hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, raqamli prognozlash tizimlarini tatbiq etish orqali resurslar ta'minotini barqarorlashtirish. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida resurs tanqisligini bartaraf etish nafaqat ekologik omillar bilan, balki iqtisodiy raqobatbardoshlik, innovatsion ishlab chiqarish va bozor mexanizmlarini optimallashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, resurs aylanishi zanjirlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, materiallar hayotiy siklini uzaytiruvchi dizayn yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish ishlab chiqarish tannaxsini kamaytirish, resurslar iste'molining yuqori darajada tejamkor bo'lishi hamda korxonalar uchun qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yashil rivojlanish tamoyillari asosida yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyot tarmoqlarida investitsion jozibadorlikni oshirishga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kirchherr, J., Reike, D., & Hekkert, M. (2017). Conceptualizing the Circular Economy. *Journal of Cleaner Production*, Vol. 14, p. 39.
2. Kirchherr, J. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions / J. Kirchherr, D. Reike, M. Hekkert // *Resources, Conservation and Recycling*, 2017, Vol. 127, p. 224.
3. Mathieux, F., Blengini, G. A. Circular Input Rate: Novel indicator to assess circularity performances of materials in a sector – Application to rare earth elements in e-vehicles motors / F. Mathieux, G. A. Blengini // *Resources, Conservation and Recycling*, 2023, Vol. 197, 107037.
4. Warren, K. Circular economy study identifies 3 million jobs across Europe / K. Warren // WRAP, 2015. – URL: <https://www.wrap.org.uk/content/circular-economy-study-identifies-3-million-jobs-across-europe>
5. Wilts, H., Berg, H. The digital circular economy: Can the digital transformation pave the way for resource-efficient materials cycles? // In *Brief: Sustainability Impulses from Wuppertal*, 2017. – URL: <https://juniperpublishers.com>
6. Шишмарева, А. В. «Реализация принципов циркулярной экономики в лесопромышленном комплексе региона» // *Journal of Economics, Entrepreneurship and Law*, 2021, 2222-534X.
7. Ghisellini, P., Cialani, C., & Ulgiati, S. (2016). A review on circular economy: The expected transition to a balanced interplay of economy, environment and society. *Journal of Cleaner Production*.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari (2019–2024). Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha hujjatlar to'plami.
9. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari bazasi. URL: www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
